

“MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI”*Muhammadali Satimov**Andijon Davlat Pedagogika instituti**Ijtimoiy gumanitar fanlar va san`at fakulteti**Musiqiy ta`lim yo`nalishi 102-guruh talabasi**Adabiyot va san`at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz
ma`naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.**Shavkat Mirziyoyev**O`zbekiston Respublikasi Prezidenti***KIRISH**

Yurtimizda keyingi o`n yil mobaynida madaniyat va san`at, adabiyot, ma`rifatni rivojlantirish borasida misli ko`rilmagan ishlar amalga oshirildi. Yangilanayotgan O`zbekistonning madaniyati va san`atini dunyo sahnalariga olib chiqish borasida qator amaliy islohotlar; milliy maqomni, baxshichilik, hunramandchilikni targ`ib qilish borasidagi muayyan madaniy islohotlar bilan birga, Toshkent shahri markazida qad rostlagan Adiblar xiyobonidagi qator so`z salaflariga o`rnatilgan purviqor haykallar adabiyotga bo`lgan yuksak ehtiromning e`tirofidir. Zero, qilinayotgan ezgu ishlar Cho`lponning “Adabiyot yashasa millat yashaydi”, degan hikmatli so`zlarining aks-sadosi bo`lib yangramoqda.

KUYGAN JOYDAN KUY CHIQAADI...

“Kuygan joydan kuy chiqadi, deydilar. Buxoroning esa kuymagan joyi yo`q. Bunda nimaiki qulasa kuy bilan qulaydi. Devor qulasa – kuy, maqbara nurasa – kuy, hovuz qurisa – kuy. Buxoro yig`lab qo`shiq aytayotgan ulug` Hofiz. Uning qo`shig`ini barcha tinglaydi, uning tovushi etmagan yer yo`q...”¹

Bu so`zlar elimizning ardoqli shoiri, suyuqli kuychisi Muhammad Yusufning yurak tolalaridan yangragan, jigar-bag`ridan qon bo`lib sizgan, Buxoroi sharifni, to`kilib borayotgan Buxoroni ko`rib ko`zlaridan yosh bo`lib qalqib chiqqan so`zlardir.

Muhammad Yusuf! Bu ismni eshitar ekanmiz ko`z oldimizda, avvalo, o`ychan, ammo samimiy qiyofadagi, soddagina inson gavdalanadi. Uning turgan turushi, qarashlari, nigohi, ko`zlari, so`zlari, tabassumi, butun borlig`i – she`r! Biz tarixdan devona Mashrabni yaxshi bilamiz, u insonni nimalar qilganini, nimalar yozganini, darveshona hayotini...

¹ Muhammad Yusuf. Saylanma: she`rlar, dostonlar. “Sharq” nashriyoti, 2017. – 384 b.

Men Muhammad Yusufni Mashrabga o'xshataman. Ha-ha, Mashrabga! Mashrab ham darvesh edi, Muhammad Yusuf ham darvesh! Ko'pchilik yoshlar bugun darvesh deganda, juldur kiyimli, elkasiga sholxalta osib olgan-u, dunyo bilan ishi yo'q, kunim o'tsa bo'ldi deydigan odamlarni – tilanchilarni tushunadi. Ammo darveshlik umuman boshqa narsa ekanligini, darveshlik bu umrini olamlar podshohi bo'lmish – Yaratganning xizmatiga bahshida etgan, chin inson matlabi, baxti, vazifasi aynan shu ekanligini anglagan va bu yo'lda o'zining butun borlig'idan kechgani inson ekanligini o'ylab ham ko'rishmaydi. Men Muhammad Yusufni bekorga darvesh deb aytayotganim yo'q. Ha, u haqiqiy darvesh, ammo egniga oq ko'ylak, kastyum-shim kiyib olgan bo'yinbog'li darvesh.

Muhammad Yusufning she'rlarini, dostonlarini o'qir ekanman yaqin o'tgan tarixda, ayni kunlarda desam ham mubolag'a bo'lmaydi, Muhammad Yusuf ismli bir ko'ksida darveshona yurak urib turgan va bu darveshona yurakni o'zining kichkinagina, ozg'in jussasi, soddagina qalbi, samimiy nigohlari bilan qirq yetti yil... bor-yo'g'i qirq yetti yilgina ko'tarib yura olgan inson yashab o'tganini ko'raman. Ba'zi vaqtlarda o'sha darvesh yurakli soddadil inson bilan xayolan suhbatlashaman, o'zimcha bir-ikkita mayda-chuyda darlarimni aytaman... yengil tortaman.

Muhammad Yusuf talqinida CHO'lpon otilsa – kuy, Mashrab osilsa – kuy, Amir Temurning qabri ochilsa – kuy, maktab bolalari paxta tersa – kuy, Yoqub cholga Zaparojes berishmasa – kuy, Qodiriy – kuy, Usmon – kuy, Manguberdi – kuy, Boburu Ulug'bek – kuy, bosmachilar – kuy!

Muhammad Yusuf yig'lab qo'shiq aytayotgan ulug' Hofiz. Uning qo'shig'ini barcha tinglaydi, uning tovushi etmagan er yo'q. Ammo, odamlar uning qo'shig'iga mahliyo bo'lib, hayrat bilan tinglashganlar-u, o'zini esa unutib qo'yishgan. Axir har bitta kuy, har bitta ohang Muhammad Yusufning bevaqt uzilgan bir yurak tomiri ekanligini ular qayoqdan ham bilishsin. Biz qaerdan bilaylik?! Olam qanday bilsin?! Bizlar faqat yig'lashni, faryod solishnigina qoyillata olamiz xolos! Ha, o'z-o'zini eb, so'nib borayotgan sha'mni maza qilib tomosha qilamiz-u, uning yog'dusidan istagancha bahramand bo'lamiz-u, lekin... keyin uni yig'i-sig'i, dod-faryod bilan so'nggi manzilga kuzatib qo'yaqolamiz. Ammo hech birimiz unga, to'xta, nimaga o'zingga bunchalar azob beryapsan, bunaqada yurangingni yeb bitirasan-ku, ado bo'lasan-ku deya aytmaymiz. Uni asramaymiz. Qaytamiga uning ado bo'layotganini bir chetda jim kuzatgancha zavqlanamiz, rohat olamiz.

O'ZBEKISTON, JONIM TO'SHAY SOYANGGA!

Vatan – inson tug'ilgan go'sha, kindik qoni to'kilgan maskan, u shu maskanda ulg'ayadi, oila quradi, esdan chiqmaydigan xotiralari unda ro'y beradi, yaqinlar, qarindoshlar, ota-bobolar barcha barchasi inson uchun muqaddas xotiralardir. Zotan, Vatanni sevish inson tabiatini bir bo'lagidir. SHuning uchun, undan uzoqlashganda uni qo'msaydi va sog'inadi. Vatan bizga Alloh tomonidan berilgan eng buyuk ne'mat

bo'lib, u haqda har qancha yozsang ham yana qaysidir jihatlari qolib ketayotganday, go'yo misralar ojiz, rangsiz, g'aribday tuyulaveradi. Vatan haqida aytmoqchi bo'lganlarning esa, behisob. Shunchalar ko'pki, hisobdan adashib ketasan kishi...

Xalqimiz odatda Vatan so'ziga Ona so'zini qo'shib talaffuz qiladi: Ona Vatan. Bu Vatanning onaday aziz, mehribon, jonkuyarligiga ishora bo'lsa kerak-da. Axir inson uchun onadan azizroq kishi bormi? Ona bizlarga jismu jon ato qilib, yana boshimizda tunlarni bedor o'tkazadigan zot-ku axir. O'ziga bori zahmatlarni olib, jami rohatni farzandiga ilinganini ta'riflashga har qancha mehribon degan so'z kamlik qilmaydimi? O'zga jon uchun, uning baxti, kamoli, ertangi kuni deb kerak bo'lsa hech ikkilanmay o'z jonidan ham kechadigan yana kim bor olamda?! Vatan mehri, vatan muhabbati bu dunyoda ona mehriga tenglasha oladigan yolg'iz mehr bo'lsa ne ajab.

*Sen - shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O'glim deb, bosh egib turgan chinorim,
Qo'ynimdagi iftixorim,
Bo'ynimdagi tumorim,
O'zing mening ulug'lardan
Ulugimsan, Vatanim!*

Istiqlol yillarida mamlakatimizda buyuk ajdodlarimizning aziz nomlarini qayta tiklash, ular merosini asrab-aylash va kelajak avlodlarga etkazish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu esa xalqimizning o'lmas qadriyatlariga, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy adabiy merosga bo'lgan yuksak hurmat-e'tiborning yorqin timsolidir. Bunday buyuk merosni tiklash, ularni asrab-avaylash va yoshlarga etkazish milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etmoqda.

Darhaqiqat, biz xalqda tumor bo'lib, garchi darvesh bo'lsa-da, o'z davrida butun elu-ulusni ortidan ergashtirgan, ularni imon-e'tiqodga, ma'rifatga etaklagan, Yaratganni sevishni va unga tomon yurishni ta'kidlagan Mashrablar avlodimiz. Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatida emas, balki, ayni zamonda, adolatsizlik va zo'ravonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldor ustidan kuluvchi, axloqan tuban kishilarni, munofiq din arboblarni ayovsiz fosh qilib, mehnatkashlar manfaatini himoya etuvchi botirso'z kurashchi sifatida shakllangan. Oddiy xalq Mashrab timsolida o'zining ishonchli vakilini, o'z orzu-intilishlarini baralla ayta oluvchi otashin siymoni ko'rgan.

*Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.*

Alisher Navoiy haqida gap ketar ekan butun turk dunyosi Navoiy hazratlarini “shams ul-millat” – millat quyoshi deb, hamma davrlarda e’zoz bilan tilga oladi. Zera shoir tabir etganidek shoh yonida faqirlarni duo qilib, ularga cheksiz hurmat va ikrom ko’rsatgan buyuk davlat arbobi butun umrini turkiy til mavqeyini ko’tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tanitish va tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag’ishlagan bobokalonimiz bu e’tirofga to’la-to’kis munosibdir. Alisher Navoiy haqidagi biografik ma’lumotlar, yozmishlarining deyarli barchasi to’liq saqlanib qolgan. Xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog’liq rivoyat va afsonalar ham talaygina. Chunki odamlar o’zlariga va kelgusi avlodga yashash tarzi, qilgan ishlari ibrat, aytmish va yozmish so’zlari haqiqat bo’lgan zotlar to’g’risida ham hurmat, ham hikmat ma’nosida qaraydilar.

*Sen Xo’jandsan,
CHingizlarga
Darbozasin ochmagan.
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig’i
Olovlarga sachragan,
SHiroqlarni ko’rgan cho’pon
CHo’lig’imsan, Vatanim.*

Mana, Vatan haqida qanday yozish, qanday so’zlash kerak! Bizning bugungi osuda kunimiz, bugungi musaffo osmonimiz, bepoyon dalalaru osmono’par binolarimiz, jahon hamjamiyatidagi baland qaddimiz zamirida necha-necha bobolarimizning qutlug’ qonlari, jangu-jadallari, ko’z yoshlari, armonu-iztiroblari, mashaqqatlari bor.

Xo’jand darvozasini himoya qilgan vatanparvar yigitlar o’shanda manfur dushmanidan qo’rqib indamay taslim bo’lishganlarida bugun bizning g’ururimiz qay darajada bo’lardi, tarixiy kitoblarda bayon etilishicha zindonband etilgan xo’jandlik jinoyatchilar urush arafasida zindonlardan ozod etilgan. Eng hayratlanarli joyi esa endi ularning yo’llari ochiq, to’rt tomoni qibla bo’lgan vaqtlarida ular yurtni tashlab ketishni o’zlariga or bilib ko’ngilli askar sifatida urushga qatnashganlar va Xo’jand darvozasi muhofazasi uchun jonlarini qurbon qilishgan. Bu qandayin muhabbat, qandayin sadoqatki ertaga o’ldirilishi kerak bo’lgan inson, boshi dor ostida turgan odam ozodlikka erishadi va boshini dor ostiga olib borgan el uchun o’z istagi bilan jon-jahdi bilan kurashga kirib halok bo’ladi. Biz dunyo tarixini, er yuzining boshlanishidan tortib to bugungu kunga qadar bo’lgan davrini, yashab o’tgan insonlarni, buyuk va oddiy jangchilarni imkon qadar o’rganib, tahlil qilib chiqmoqdamiz, ammo bizning O’rta

Osiyo xalqichalik, bizning buyuk Turkistonimiz aholisichalik qahramonliklar qilgan millatni kamdan kam uchratyapmiz, to'g'rirog'i uchratmayapmiz ham.

Temur Malik, Muqanna, Shiroq, To'maris, Najmiddin Kubro... har birlari alohida bir tarix va har birlari alohi bir osmon-osmon g'ururdir!

*Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig' deb,
YOtarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to'qson olti
Urug'imsan, Vatanim.*

Jaloliddin Manguberdi! Agar har bir o'zbek o'g'loni shu inson kabi dovyurak, shu inson kabi vatanparvar, shu inson kabi mard bo'lganida edi, biz bugun butun er yuzini o'z qo'limizga olgan bo'lardik. Men Manguberdi bobomiz haqida ko'p gapirib vaqtingizni olmoqchi emasman, zero, bu insonni bilmagan o'zbek o'zbekmas. Aytmoqchimanki, unutib qo'yamaylik, Jaloliddindagi o'sha sher na'ra tortgan yurakni, o'sha lochin hayiqadigan nigohni farzanlarimiz yuragiga, ularning nigohlariga singdiraylik. Ularga sulton Jaloliddin Manguberdi tarixini yod oldiraylik. Muhammad Yusuf Jaloliddin – Kurdistonda, deya shunchaki yozib ketmaganligini, balki, ko'zlarida yosh, ko'ksida o'kinch, yurak-yuragida alam bilan yozganligini farzanlarimizga tushuntiraylik. Buyuk bobomizning qabrini haligacha olam ahli topolmaganligini, ammo doimo hurmat bajo keltirayotganligini yod etib, Manguberdining kim bo'lganligini hayrat bilan o'rganayotganligini unutmaylik va unuttirmaylik.

*O'g'lim, desang osmonlarga
G'ivot bo'lib uchgayman,
CHambil yurtida Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan, Vatanim.*

O'g'lim, desang osmonlarga g'ivot bo'lib uchgayman! Eh, Muhammad Yusuf, soddadil og'am... Bu vatan, bu O'zbekiston sizni o'g'lim demay kimni desin?! Elning suyakli san'atkorlari va ardoqli shoirlari bir-birlari bilan kim o'zarga uy qurish, mashina olish o'yinini o'ynayotgan bir vaqtda, "men sendan kammi" qabilida dunyoning eng ko'zga ko'ringan brendlaridagi mashinalarini ko'z-ko'z qilib yurgan

mahalda egnida har doimigi odmigina kastyumi, oyog'ida eskigina poyabzali bilan davlatning eng yuqori minbarlariga chiqib, yolg'on aralashalmasdan, ta'ma qilmasdan borini boricha gapirib, she'rlar o'qib, yana jimgina o'z ishi bilan shug'ullanib yurgan, erkli elning erkatoy bolalariga o'zligini tanishini, bobolarini eslatib turishni, odam faqat anatomik mavjudod emas, balki, yurak, qalb, nomus, g'urur va muhabbat kabi yuksak tuyg'ularga, ilohiy hissiyotlarga ega yaratilmish ekanligini ta'kidlab, shunga munosib bo'lishi kerakligini istagan shoirni, bu ona vatan o'g'lim demasligi mumkinmi?!

G'ichir-g'ichir tishimdagi so'lig'imsan, Vatanim! Bu gap ham shunchaki gap emas va bu gapga umrining so'nggi lahzalariga qadar sodiq qolgan, vatan qay manzil tomon yo'llasa o'sha tomonga g'iro't bo'lib uchgan shoir, hayotining so'nggi lahzalarini ham ona vatan xizmatida o'tkazdi va xizmat jarayonida jon berdi. So'liq nimaligini bilmaganlar uchun eslatma sifatida aytib o'tib ketishimiz joizki, so'liq o'tning og'iz qismida joylashgan, yog'ochdan yasalgan narsa bo'lib o'tning yo'nalishini belgilashda, o'zgartirishda, chavandozga bo'y sundirishda ishlatiladi. Muhammad Yusuf ota makonini hozir aytib o'tganimiz o'sha so'lig'u qamchilari bilan katta yo'lga o'tlangan chavandoz, o'zini esa chavandoz ostidagi otga qiyoslab *"buyur, sen qay tomon desang shu tomonga yelaman"* deya xitob qilmoqda.

Umrining so'nggi kunlarini shifoxonada, davolanish bilan o'tkazayotgan shoirga qo'ng'iroq bo'ladi va yuqoridan topshiriq bo'lganligi, Muhammad Yusuf Qoraqalpog'istonga borishi kerakligi, xalq bilan uchrashib, suhbat o'tkazishi, she'rlar o'qib berishini kerakligi aytiladi. Muhammad Yusuf *"men shifoxonadaman, ozroq tobim bo'lmay turibdi"*, deya aytmaydi, aytolmaydi. Qaytamiga *"bosh ustiga"* deya yo'lga o'tlanadi. Ona vatan xizmati uchun yo'lga chiqqan shoir o'zining so'nggi nafaslarini olayotganligini bilgan-bilmaganligi bizga qorong'u, ammo shu narsa aniqki, Muhammad Yusuf bir so'zli inson edi va umrining oxirigacha o'z so'zida qat'iy turdi. O'zini olib qochmadi, betobman demadi va ona xalqning ko'z oldida buyuk bir intiho bilan vidolashdi.

XULOSA

Xotiralarsiz, o'tmishsiz inson bo'lmaganidek, tarixsiz kelajak ham bo'lmaydi. Biz asrlar davomida jahon ayvonida ismlari zarhal harflar bilan bitilgan bobolarimiz-la faxrlanishimiz bilan bir qatorda ularning yashab o'tgan hayotini, ibratli umr yo'llarini, iztirobu-og'riqlarini, quvonchlari-yu shodliklarini ham chuqur o'rganishimiz kerak. Bu borada esa bizga milliy adabiyotimiz bevosita mayoq bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Inchinun Muhammad Yusuf ijodini ko'zdan kechirar ekanmiz shoir she'rlari orqali gohida Sohirqiron Amir Temur bobomiz bilan birga jang maydoniga kirib borganday, gohida esa g'azal mulkinging sultoni bo'lmish Mir Alisher Navoiy bobomizning latif suhbatlaridan bahramand bo'lganday bo'lamiz.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning milliy adabiyotimizga, milliy san'atimizga va ma'naviyatimizga qaratayotgan yuksak e'tibori, jahon hamjamiyatida o'zbekning milliy qiyofasini yanada teranroq ko'rishda yaratishga bo'lgan ishtiyoqi mehdirdaryo xalqimiz uchun quvonch bag'ishlab turibdi. O'zbekning milliy qiyofasini yaratishda esa, avvalo milliy tariximiz, milliy adabiyotimiz va milliy sa'natimizning uyg'unligi, mustajoblighi va olamga yoyilishi birlamchi va eng asosiy vazifamizdir. Buning zamirida buyuk bobolarimizning ruhi-poklarini, tabarruk yodlarini, ibratli umrlarini doimo yodimizda saqlagan holda olam ahliga namoyon qilishdek rohatbaxsh bir ishni amalga oshirayotganligimiz bor gap.

Bugun atoqli shoir, elimizning suyuqli farzandi Muhammad Yusufning betakror she'rlarini, hech kimga o'xshamaydigan ijodini bir qator ko'zdan kechirgan holda qaroqlarimiz yoshga to'ldi va bir muncha yodimizdan chiqib borayotgan qadriyatlarimizni esga oldik desam mubolag'a bo'lmaydi.

Osmonni va yer yuzini nur yoritib turganidek inson ongini, uning ma'naviy dunyosini avvalo o'qish, bilim olish, o'rganish yoritadi. Shuning uchun ham har qachon va har qanday holatda bo'lmaylik o'qishdan, o'rganishdan to'xtamaylik. Bir donishmand: agar kimdir menga ertaga dunyo tugaydi deb aytsa, bugun men daraxt ekardim! – degan edi. Ayni damda esa men: agar kimdir menga ertaga dunyo tugaydi deb aytsa, bugun men kitob o'qigan bo'lardim – deya o'z maqolamga nuqta qo'ymoqdaman!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. "Sharq" nashriyoti.
2. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. "Adib" nashriyoti.
3. Mirzo Kenjabek. Yoshlarga dil so'zlarim. "Adabiyot" nashriyoti.
4. Shukurova, I. (2024). PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE IN ADOLESCENCE. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(1), 65-69.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. www.khurshiddavronkutubxonasi.com
7. www.gazeta.uz sayti.